



Shaxnoza Rahimova,

Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi TATU «Axborot
kutubxona tizimlari»
kafedrasi assistenti

O'zbekistonda axborot almashinuv jarayonida: yoshlar mavzusi

Hozirgi zamон axborotlashgan sivilizatsiya shakllanishining tarkibiy qismi sifatida jahon globallashuvi namoyon bo'lib, axborot almashinuv avvalgi zamон sharoitidan butunlay farq qiladi. Chunki avval har bir mamlakat fuqarosi, asosan o'z davlati va millati tomonidan shakllantirilgan axborotlar tizimi ta'sirida rivojlangan bo'lsa, endi u jahon miqyosida butun insoniyat yaratgan axborotlar oqimining hal qiluvchi ta'siri ostida shakllanmoqda.

Shu boisdan, axborotlar xuruji xalqimiz ijtimoiy madaniyatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ochiq axborot tizimi sharoitida jahon miqyosida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborot psixologik xavfsizligi bilan bog'liq global muammolarni hal qilishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Globalashuv jarayonida esa ro'y berayotgan o'zgarishlarning tezligi va chuhurligi inson iqtidori va insoniyatga yon-attrofga moslashish, sodir bo'layotgan o'zgarishlarning yo'naliшини belgilab olish tasavvurini zaruratga moslashtirishni talab etadi. Sotsiologiyada keng tarqalgan yondashuvlardan biri — pozitivizm, ilm-fanda isbotlangan jamiyat qonuniyatlarini tezda aniqlab, ijobji xulosalar chiqarishni taqozo etadi. So'nggi yillarda axborotlar ko'lami ko'payganligi sababli «axborot almashinuv madaniyati» tu-shunchalari keng qo'llanmoqda. Mana shunday axborotlar oqimining ko'pligi O'zbekiston jamiyatida ham axborot almashinuv jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti.

Insoniyat axborot almashinuv barobarida fiklash madaniyatini hamda xulq-atvor bilan bog'liq turli mazmundagi yot ma'lumotlarga ham ega bo'lmoqda. Shaxs tomonidan axborotni qabul qilishning hal etuvchi mezoni bu insonning ongidiр. Har bir shaxs va ijtimoiy qatlam axborotlarni qabul qilishda o'zining yoshi, hayotiy tajribasi, millati, bilimi, kasbi, jamiyatdagi nuqtai nazaridan qabul qiladi. Hozirgi axborotlashuv jarayonidagi tub o'zgarishlar jarayonida «madaniyat» va «axborot» o'rtaida o'zaro uzviy bog'liqlikni davr talabi asosida takomillashtirish

asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, bugungi kunda madaniyat va texnika o'rtaсидаги munosabatlarning mutanosibligi, zamонавиу axborot vositalarining yuksak madaniyatni ommaga tarqatishdagи o'rni va ahamiyati, ma'naviy inqiroz masalalariga chek qo'yish maqsadida kompyuter savodxonligi, axborot savodxonligi, axborot madaniyati va kompyuter madaniyati masalalarini takomillashtirish, virtual muhit hamda uni inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilishi axborot texnologiyalari jamiyatimizning barcha sohalarini qamrab olganidan dalolat bermoqda.

Hozirgi kunda aholi turli guruuhlarining ijtimoiy holatidagi o'zgarishlar «hamisha ilg'or g'oyalarni tarqatuvchi» deb hisoblangan yoshlarni ham chetlab o'tmayapti. Yoshlar o'sish va ulg'ayishni boshidan kechirayotgan ijtimoiy demografik guruh bo'lib, uning holati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyotida bir tomonдан, madaniyat mohiyatining o'sib borishi kuzatilsa, ikkinchi tomonдан, axborot texnologiyalarini tezlashuvi yoshlarning maqsadlari va qiziqishlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. XXI asrda axborot texnologiyalari rivojlangan, yoshlarning atrof-muhit bilan muloqotga kirishishi, bilimlarni o'zlashtirishi va psixologik holatlarni boshqara olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yillarda tez-tez o'zgarib turadigan eng so'nggi avlodlariga har doim «tashna» bo'lib yashaydigan ijtimoiy qatlam — yoshlar ekanligini inobatga olsak, har

bir kommunikatsion avlod o'zgarishi ularning tafakkur va turmush tarzida yangidan-yangi noaniqliklarni keltirib chiqaraveradi.[1] O.Toffler o'zining «Kelajak talvasasi» kitobida ijtimoiy o'zgarishlarning quyidagi asoslarini taklif etgan ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarning tezlashishi insonga tashqi va ichki adaptatsiya (moslashishda) borgan sayin qiyinchiliklar tug'dirmoqda[2]. O. Tofflerning asarida ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarning tezlashishi hozirgi zamon yoshlarining tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazmoqda. O'zbekiston jamiyatida yoshlar bilan bog'liq muammolarni atroflicha o'rganish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shu boisdan, ularni o'ziga xos, xususiyatlari ega bo'lgan alohida ijtimoiy demografik guruh deb hisoblash, ularning jamiyat hayotidagi o'rnnini aniqlash, yashash sharoitlarini o'rganish, yoshlarning ijtimoiy mavqe, olib borayotgan faoliyatining turlari, xulq-atvori, axborotlashgan jamiyatdagi turmush tarzi, oldinga qo'ygan maqsadlari, intellektual salohiyati, savodi, iqtidori va ijodiy faoliyatini namoyon etish bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy-sotsiologik jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kash etmoqda.

XX asrga kelib, tadqiqotchilarining yoshlarga bo'lgan e'tibori kuchaydi. Yoshlarga oid masalalar ta'limgarbiya, odob-axloq, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar, bo'sh vaqtini tashkil qilish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ilmiy adapbiytarda yoshlar bilan bog'liq mazkur muammolar jamiyat tizimida (ya'ni jamiyat asosiy tavsifi, tizimli o'zgarishlar va siljishlar bilan uyg'un holda) ham, o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida differensial tarzda ham o'rganiladi[3]. Bundan tashqari, mamlakatimizni zamonaviy davlatga aylanishida ta'limgarbiya ishlarini oqilona yo'lda qo'yish, yoshlarni ilm-fan, ilg'or madaniyat va texnologiya qonunlari asosida tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, ijodiy fikrلайдиган, yuksak salohiyatlari yoshlar hal qiladi.

O'zbekiston yoshlarning jamiyatda o'z o'rinnarini topishi, eski qarashlarni so'nishi hamda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi davrida amalga oshirilmoqda. Yoshlar ijtimoiy munosabatlarning subyektlaridir. Shu tufayli ham ular obyektiv ijtimoiy munosabatlarning ishtrokhisisiga aylanganlar. Zamonaviy jamiyatda axborotlar oqimining kengayishi yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini bir muchna murakkablashtirib yubordi. Yoshlarning ijtimoiylashuvi bir qator mustaqil omillar (oil'a, ta'limgarbiya, ommaviy axborot vositalari) ta'siri ostida amalga oshiriladi. Mazkur ijtimoiy mexanizmlarning har biri yoshlar tarbiyasini amalga oshirishda turli xil vazifalarni bajaradi va ularga o'zgacha ta'sir etadi. Yoshlarimizga ta'limgarbiya berishda, ularni hozirgi kunning muammolarini mustaqil fikrashga o'rgatish lozim.

Dunyoda axborot almashinuvining o'sishi bilan u madaniyat, ilm-fan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarini keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrism g'oyalari bilan zaharovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda, ma'naviy tahdidlarni oldini olishga erishish mumkin. Ma'naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan, globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatlari bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablarini asosida tashkil etish zarur. Har bir davlat o'z fuqarolari bilimli, haq-huquqini taniydigani, ma'naviy barkamol, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lib, voyaga yetishi haqida qayg'uradi. Ta'kidlash joizki, turli davlatlarda «komil inson» tushunchasiga turlicha sifatlar nisbati

beriladi. Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos xususiyatlari va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishga harakat qiladi.

Doimiy yuksalish haqida qayg'uruvchi ayrim davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan holi bo'lmaydi. AQShda fuqaro va yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi, amerikalik fuqaro va yoshlar tarbiyasi quyidagi g'oyaviy ustunlarga tayanadi: AQSh fuqarolari Konstitutsiyani, Amerika davlatchiligining asoslarini va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayg'uradilar. Amerikalik har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bish, har bir shaxsga «hazrati inson» sifatida murojaat etishdir. Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beradi. Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tuşunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangida yetishadi. Har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Xuddi ana shu kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga undaydi.

Yaponiyada, fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limgarbiya; davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat; fuqarolik axloqiy asoslarini tarbiyalash[5]. Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil etadi. Chunki bu tizim ishlab-chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalishga yo'naltirilgan.

Shu boisdan ham, inglez faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) «Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo, odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o'rganish joizdir» degan edi. Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boylik yo'q. Mehnatsevarlik, intizomlik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarda ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhiy birdamlilikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda jamoanining yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhnинг har bir a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi, o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolarini sifatida qabul qiladi.

Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlilik (yaponchada «aydagarasaygi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinish turibdiki, millat kelajagini o'laydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bizda «fuqaro tarbiyasi» haqida kam gapiriladi, biroq bu vazifa davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan uch yo'nalishda: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida, Milliy g'oyani singdirish vositasida, maktab umummilliy davlat dasturi asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston jamiyatida axborot almashinuvni jarayonlarini o'rganar ekanmiz, o'rganilayotgan muammoga yanada to'liq xulosa chiqarish maqsadida, «Axborotlash-

gan jamiyatda yoshlar o'rtaсидаги axborot almashinuvi madaniyatining shakllanishi» (oliy ta'lif muassasasi talabalari misolida) nomli sotsiologik-tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqot 4ta universitet: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent Davlat agrar universiteti, O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 5ta Samarqand, Farg'ona, Urganch, Nukus va Qarshi filiallarida hamda 3ta institut: O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida o'tkazildi. Ushbu sotsiologik-tadqiqotga jamiyatimizning barcha fan sohalari bo'yicha tibbiyot, pedagogika, qishloq xo'jaligi, texnika, til-shunoslik va san'at sohalardagi talaba yoshlar jalb qilingan bo'lib, ular tadqiqot jarayonida faol ishtirok etdilar. Toshkent shahri va viloyatlarda ta'lif olayotgan Oliy ta'lif muassasalaridagi talabalarining umumiy sonidan (39942ta talaba, 2018-yil yanvar oyigacha bo'lgan ma'lumot) kelib chiqib, tadqiqot uchun mo'ljallangan 1400ta anketa so'rovnomasi saralab olish usuli orqali taqsimlandi. Shundan 1215ta anketa yaroqli deb topildi. Tadqiqotda 18-33 yoshlilar ishtirok etishdi va tadqiqotni tashkillashtirish reprezentativ ehtimoliy saralatib olish usulidan foydalanish hisobiga amalga oshirildi.

So'rovda ishtirok etgan talaba-yoshlar, so'rovnomamizning birinchi savoliga quyidagicha javob qaytarishgan. Hurmatli respondent, aytinchchi, sizningcha, axborot tushunchasi nimani anglatadi? 28% respondent voqe'a-hodisalarining tizimli tafsiloti, 22% respondent ahamiyatli bo'lgan har qanday ma'lumotlar, 16% respondent biror narsa to'g'risidagi ma'lumot, 22% respondent inson faoliyatida zarur bo'ladigan ma'lumotlar, 11% respondent OAVda beriladigan ma'lumotlar, 1% respondent so'rov ishtirokchilari mazkur savolga javob berishim qiyin deyish bilan cheklanishgan.

Yuqoridaq javoblardan xulosa qiladigan bo'lsak, so'rovnomada qatnashchilari axborotni anglashi darajasi deyarli pozitiv ko'rinishda ekanliginga guvoh bo'lish mumkin. Shu orinda, bu omil kishilarning axborotni to'la anglab olib keyin qabul qilishiga ta'sir etadi. Axborot kishining psixodemotsional holatiga jiddiy ta'sir etishi hech kimga sir emas, shuning uchun axborotni tarqatish va undan foydalanshishda o'ziga xos me'yor qoidalar jamiyat modernizatsiyalashuvi bilan doimo takomillashib bormog'i lozim bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, axborot dan guruhiy tarzda foydalansh madaniyatini yanada yangi shakllari paydo bo'lmoqda, bunday sharoitda guruhdagi ichki muhit va undagi ta'sir kuchlar faoliyati ta'siri boshqa guruh a'zolariga axborotni singdirilish vositasi sifatida ham qo'llanishi mumkin. Siz uchun asosiy bo'lgan axborot manbaini ko'rsating, degan savolga respondentlarning javoblari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi: 21% respondent televide niye, 13% respondent bosma axborot manbalari (kitob, gazeta, jurnallar), 7% respondent radio, 28% respondent Internet tarmog'i, 6% respondent yon-atrofimdag'i odamlar, 7% respondent ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter va boshqalar), 8% respondent messendjerlar (Telegram, WhatsApp va boshqalar), 10% respondent kutubxonalar deb javob qaytargan.

Bu holat asosan so'rovnomamiz 18-33 yosh oralig'idagi avlod vakillari orasida o'tkazganimiz uchun huddi shu ko'rsatkichlarda bo'lgan. Internet tarmog'i orqali ma'lumotlar va axborotlar olish yoshlar orasida keng foydalanshatganligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shuningdek, yana bir qiziq jihat, tadqiqotimizning atigi 6 % ishtirokchilari yon-atrofidagi odamlar ular uchun asosiy axborot manbai ekanligini bildirishgan. Bu esa, tobora kishilar o'zlari mustaqil ravishda biror-bir ma'lumot yoki axborot olishga intilayotganligidan

dalolat beradi. Siz olgan axborotingizni do'stlaringiz, yaqinlaringiz yoki bo'lmasa, atrofdagi odamlar bilan o'rtoqlashasizmi? — deb berilgan savolga respondentlarning javoblari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi: 41% respondent — Ha, albatta, 3% respondent — Yo'q, 55% respondent Ba'zan, u qanday axborotligiga qarab, 1% respondent javob berishim qiyin deb javob qaytargan. Yuqoridaq javoblardan xulosa qiladigan bo'lsak, respondentlarning yarmi o'zaro axborot almashinuv muhitida yashayotganligini to'la his etishlarini va bu jarayon ko'pincha ularning psixodemotsional xususiyatlari bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

Siz bo'sh vaqtinuzni qanday tashkil etasiz? — deb berilgan savolga respondentlarning javoblari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi: 46% — respondent internet tarmoqlarida, 36% — respondent bo'sh vaqtimda ishlaman, 14% respondent — kutubxonalarda, 4% respondent madaniy hordiq chiqarish maskanlarida, 1% — bo'sh vaqtim yo'q deb javob qaytargan. Ma'lumki yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil qilish va o'tkazishlari ta'lif hamda madaniyat idoralaridan tashqari amalga oshiriladi. O'tkazilgan tadqiqotdan ko'rilib turibdiki, respondentlarning katta qismi bo'sh vaqtini internet qarshisida o'tkazadi. Internet esa shakllanib borayotgan yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatadigan vositadir. To'g'ri internetning ijobji tomonlari ko'p, lekin o'ziga yarasha salbiy tomonlari ham yo'q emas. Afsuski, bu hamma vaqt ham faqat axloqiy qadriyatlarni asosiga qurilmaydi.

Aytinchchi, Siz axborot-resurs markaziga (kutubxonaga) a'zomisiz? — degan savolga respondentlarning 83% respondent — Ha, albatta deb javob qaytargan bo'lsa, 17% respondent — Yo'q deb javob qaytargan. Ushbu savolga to'liq qoniqmaganligimiz sababli ekspert so'rov o'tkazildi. Chunki oliy ta'lif muassasalariga 1-kursga qabul qilingan talabalar majburiy OTM axborot-resurs markazlariga a'zo qilish orqali ularni ro'yxatdan o'tkazadilar. Bu hol esa 83% yoshlar axborot-resurs markazidan foydalanadi degani emas. Ekspert so'rovida shu narsa ma'lum bo'ldiki, talaba yoshlarning 60% axborot-resurs markazidan foydalanalar ekanlar. Agar a'zo bo'lsangiz, nima maqsadda foydalanasisiz? Savoliga 35 % respondent ishonchli axborotlarni olish maqsadida, 18% respondent — U yerda asosan ma'naviy dam olish maqsadida tashrif buyuraman, 5% respondent — Retrospektiv ma'lumotlar ko'pligi tufayli foydalananaman, 7% respondent — U yerda xizmat ko'rsatish sifati balandligi uchun, 31% respondent — U yerda izlagan ma'lumotlarni har doim topa olganligim tufayli, 4% respondent — Bilmadim, buning sababini o'ylab ko'rмаган ekanman, deb javob qaytargan.

Respondentlarning 35% — ishonchli axborotlarni olish maqsadida va 31% respondent — U yerda izlagan ma'lumotlarni har doim topa olganligim tufayli deya o'zlarining fiklarni bildirganlar. Javoblaridan ko'rilib turibdiki, oliy ta'lif muassasalarining axborot-resurs markazlarining fondi yaxshi ta'minlangandan dalolat beradi, bundan tashqari, talaba yoshlarning ishonchli axborotlarni aynan axborot-kutubxona muassasalaridan topib ishlashishlari juda ahamiyatli masaladir. «Hurmatli respondent, aytinchchi, siz qaysi jahon axborot-resurslaridan foydalanasisiz?» savoliga: 17% respondent — EBSCO, 61% respondent — eLibrary, 7% respondent — JSTOR, 7% respondent — ProQues, 4% respondent — Emerald, 4% respondent — Springer, deb javob qaytarganlar.



So'nggi yillarda jahon axborot-resurslari atamasidan ko'p foydalanilmoga. Jahon axborot-resurslari — bu jahoning yetakchi kompaniyalari va nashriyotlarining ilmiy-ta'limiylar elektron-resurslari bo'lib, ular fan, ta'lif, madaniyat tarmog'i da 6ta litsenziyalari axborot-resurslaridan foydalanshatgan. Ular biznes sohalarini rivojlantirishda katta hissa qo'shadi. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning lokal EBSCO, eLibrary, JSTOR, ProQues, Emerald va Springer'lardan iborat. Axborot-resurslari talaba yoshlarga ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayonlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Taqdim etilayotgan elektron-resurslar fan va ta'lif

1-jadval. Toshkent shahridagi oliy ta'lif muassasalarining talabalari taqsimoti

№	OTM nomi	Jami talabalar soni	erkak	ayol	shu jumladan				Tadqiqotda ishtirot etgan talabalarning o'rtacha yosh ko'rsatkichi
					I kurs	II kurs	III kurs	IV kurs	
1	Toshkent pediatriya tibbiyat instituti	99	56	43	99	0	0	0	18-27 yoshgacha
2	O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti	97	64	33	69	12	16	0	18-31 yoshgacha
3	Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti	118	92	26	5	69	43	1	18-32 yoshgacha
4	Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	100	52	48	16	18	21	45	18-27 yoshgacha
5	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	102	12	90	61	0	27	14	18-33 yoshgacha
6	Toshkent Davlat agrar universiteti	100	78	22	40	19	33	8	19-28 yoshgacha
7	O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti	99	25	74	44	45	8	2	18-23 yoshgacha
Jami:		715	379	336	334	163	148	70	

2-jadval. Viloyatlardagi oliy ta'lif muassasalarining talabalari taqsimoti

№	OTM nomi	Jami talabalar soni	erkak	ayol	shu jumladan				Tadqiqotda ishtirot etgan talabalarning o'rtacha yosh ko'rsatkichi
					I kurs	II kurs	III kurs	IV kurs	
1	TATU Farg'ona filiali	100	85	15	47	34	19	0	18-27 yoshgacha
2	TATU Urganch filiali	100	69	31	50	14	28	8	19-28 yoshgacha
3	TATU Nukus filiali	100	68	32	51	49	0	0	18-27 yoshgacha
4	TATU Samarqand filiali	100	91	9	0	4	56	40	18-27 yoshgacha
5	TATU Qarshi filiali	100	71	29	28	23	24	25	19-30 yoshgacha
Jami:		500	384	116	176	124	127	73	

**1-rasm.** Respondentlarning kurs bo'yicha taqsimoti**2-rasm.** Toshkent shahridagi oliy ta'lif muassasalarining talabalari taqsimoti



taraqqiyotining turli sohalarini: tibbiyat, qishloq xo'jaligi, sotsiologiya, kutubxonachilik ishi, moliya menejment boshqaruvi va axborot texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirmoqda. Shuningdek, talaba yoshlar xorijiy ilmiy-ta'limiyl onlayn axborot-resurslaridan nafaqaqt axborot-kutubxona muassasalarining o'quv zallarida, balki uning web-saytlari orqali ham foydalanishlari mumkin.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi barcha sa'y-harakatlarning dastlabki quvonchli mevasi sifatida bir necha xorijiy til-larda erkin gaplasha oladigan yoshlarimiz, ilmiy-ta'limiyl onlayn axborot-resurslaridan muammosiz foydalanayotganliklari maqtovga sazovordir. Yoshlarimizni bilim olishlarida, ularni ilmiy-ta'limiyl resurlardan oqilona foydanalishlari axborot almashinuvining ijobji tomonlari sirasiga qo'shish mumkin. Aytinchi, axborot almashinuvi tezlashgan bir paytda axborotlar Sizning turmush tarzingiz va dunyoqarashingizga ta'sir ko'rsatadi? — savoliga: 32% respondent — ta'sir ko'rsatmaydi, 29% respondent — axborotga bo'lgan immunitetim shakllangan, 27% respondent — insonning o'ziga bog'liq, 10% respondent — qisman ta'sirini ko'rsatdi, 2% respondent — Javob berishim qiyin, deb javob qaytargan.

Internet saytlaridagi tarqalayotgan axborotlarning rasmiy va norasmiy ekanligini tekshirasizmi? — savoliga: 27% respondent — Ha, albatta bu juda muhim, 17% respondent — rasmiy sayt ekanligini tekshiraman, 26% respondent — berilgan axborot turiga qarab, 13% respondent — Bilmadim, e'tibor bermas ekanman, 15% respondent bu unchalik muhim deb o'ylamayman, 2% respondent — Javob berishim qiyin deb javob qaytargan. Internet qarhisida qancha vaqt sarflaysiz? — savoliga: 57% respondent — bo'sh vaqtimning hammasida, 20% respondent — kerakli ma'lumotlar topilguncha, 9% respondent esa — zerikkuncha, 3% respondent — zarur hollarda foydalanaman, 10% respondent — vaqtimni rejalashtirganman, deb javob qaytargan.

O'zbekistonning Internet tarmoqlarida muloqot madaniyati shakllanganmi? — savoliga 37% respondent — Ha shakllangan, 30% respondent — yo'q, lekin bu muhim savol, 30% respondent — yo'q,

endi shakllanayapti, 3% respondent — yo'q, bunga ehtiyoj yo'q deb javob qaytargan. «Yoshlar o'rtaida axborot almashinuvi madaniyati qay darajada deb uylaysiz?» Savoliga: 18% respondent — A'lo, 63% respondent — yaxshi, 19% respondent — past darajada, deb javob qaytargan. Ushbu o'tkazilgan anketa so'rovnomasi savollari to'liq qamrab olinmaganligi sababli, ayrim muhim savollar respondentlar, ya'ni oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning fikrlari yoritib berildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat modernizatsiyalashuvi jarayonida mamlakat yoshlari o'rtaida axborot almashinuvi madaniyati qoniqarli daraja. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot OTM tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtaida o'tkazilganligini hisobga olgan holda, aniq xulosalar, takliflar ishlab chiqib, real hayotimizga tatbiq etish muhim o'r'in egallaydi. O'zbekiston jamiyatidagi axborot almashinuvi jarayonlari yoshlar o'rtaida qay darajada shakllanganlik darajasini real holati birgina o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan xulosa chiqarib bo'lmaydi, shu sababli yoshlar muammosini bosqichma-bosqich sotsiologik tadqiq qilish, muammoni yechishning samarali yo'llari va vositalarini ishlab chiqish hayotiy zarurat ekanligidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Чупров В.И., Зубок Ю.А., Певцова Е.А. Молодежь и кризис: Диалектика неопределенности и определенности в социальном развитии. Москва: Русское слово, 2009. – 174 с.
2. Тоффлер О. Шок будущего. Москва: Наука, 1986. – 74 с.
3. Социология молодежи: Учебник под ред. В. Т. Лисовского. – СПб: Изд ГУ, 1996; Кон М. С. Социология молодежи // В кн. Краткий словарь по социологии. Москва: Наука, 1998.
4. Ergashev I. va boshqalar. Milliy istiqlol goyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – T.: Akademiya, 2005, – 302 b. ↗